ISNN 3030-3907

2026/4
VOLUME 7

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/4 VOLUME 7

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

JIZZAX VILOYATI TOJIK XALQINING ETNIK SHAKLLANISH TARIXI

Babayev Shoxrux Esanbayevich
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: sh.babayev@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola Jizzax viloyatida qadim davrlardan buyon istiqomat qilib kelayotgan millat va ellatlar bilan birgalikda etnik shakllanish tarixiga ega bo‘lgan tojik xalqining shakllanish tarixi haqidagi ma’lumotlarni yoritib o‘tadi. Maqolada Jizzax hududida istiqomat qiladigan xalqlar etnik shakllanishi ularning qadimdan boshlab yashash sharoiti xususiyatlari, mashg‘ulotlari, hudud jihatlari bilan bog‘liq hisoblanadi. Mazkur jihatlar Jizzax vohasi xalqlari etnik turmush tarzini va shakllanish jarayonini manbalar asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Rossiya imperiyasi, tojik, o‘zbek, Jizzax uyezdi, Samarqand okrugi, etnik xilma-xillik, ko‘chmanchi chorvachilik, o‘troq dehqonchilik.

Аннотация. В данной статье представлена информация об истории формирования таджикского народа, имеющего историю этнического формирования вместе с народами и племенами, населявшими Джизахскую область с древних времен. В статье рассматривается этническое формирование народов, проживающих в Джизахской области, в связи с особенностями их условий жизни, занятий и территориальных аспектов с древних времен. Эти аспекты рассматриваются на основе источников информации об этническом образе жизни и процессе формирования народов Джизахского оазиса.

Ключевые слова: Российская империя, таджики, узбеки, Джизахский уезд, Самаркандский район, этническое многообразие, кочевое скотоводство, оседлое земледелие.

Annotation. This article covers information on the history of the formation of the Tajik people, who have a history of ethnic formation together with the nations and tribes that have inhabited the Jizzakh region since ancient times. The article considers the ethnic formation of the peoples living in the Jizzakh region to be related to the characteristics of their living conditions, occupations, and territorial aspects since ancient times. These aspects are covered based on sources of information about the ethnic lifestyle and formation process of the peoples of the Jizzakh oasis.

Keywords: Russian Empire, Tajik, Uzbek, Jizzakh uyezd, Samarkand district, ethnic diversity, nomadic cattle breeding, sedentary agriculture.

KIRISH.

ISSN 3030-3907

Jizzax hududida istiqomat qiladigan xalqlar etnik shakllanishi ularning qadimdan yashash sharoiti xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, bu hududda yashovchi xalqlar qadimdan o‘troq, yarim o‘troq dehqon va chorvador aholining shimoldan janubga, janubdan shimolga, sharqdan g‘arbga, g‘arbdan sharqqa tomon siljishlarida o‘ziga xos etnomuloqot hududi bo‘lganligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga o‘troq va yarim o‘troq aholining muqim yashab qolishi, xo‘jalik yuritishi uchun barcha tabiiy sharoitlarni yaratgan, hududda qishloq xo‘jaligi, chorvachilik doimiy va mavsumiy tarzda rivojlanib borgan hamda ko‘chmanchi chorvachilikning o‘troq dehqonchilik xo‘jaligi bilan mushtarak rivojlantirish imkoniyati ko‘plab etnik guruhlarni bu joyga ko‘chib kelib o‘rnashishlariga sabab bo‘lgan.

Jizzax vohasida yuz bergan etnik jarayonlar bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlardagi fikr va mulohazalar, tarix fanida tan olingan usullar va nazariy yondashuvlar, tarixiy va etnologik ilmiy adabiyotlar hamda ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borilgan. Hozirgi vaqtda odatdagi etnografik uslublari asosida aholining etnik tarkibini o‘rganish ancha qiyin masala. Qolaversa uzoq asrlar oldin u yoki bu mintaqada joylashib qolgan etnik guruhlar allaqachon o‘troqlashgan va urug‘ nomlarini unutganlar. Vohada ayrim etnik guruhlarning u yoki bu mintaqalarda qaysi tarixiy davrlarda yashaganligi haqida yozma va ilmiy manbalardagi ma’lumotlar yetarli emas. O‘zbekiston hududida qadimgi davrlardan ko‘plab etnik guruhlar migratsiya sababli joylashib, mahalliy aholi bilan etnik madaniy munosabatlarda bo‘lganlar.Ularning ko‘pchiligi vaqt o‘tishi bilan o‘troq aholiga aralashib etnik nomlarini unutib yuborganlar. Lekin ayrim etnik guruhlarning nomlari ular yashagan joy nomlariga o‘tib qolgan. Turli etnik guruhlarni ma’lum bir hududda uzoq yashab, bu joylardan ko‘chib boshqa mintaqalarga borib joylashib qolish hollari ham bo‘lgan. Shunga qaramay ularning etnik nomi avvalgi yashagan joylarida uzoq vaqt mobaynida saqlanib qolavergan[6:17].

Jizzax vohasi tarixi va unda kechgan etnik jarayonlar to‘g‘risida ma’lumotlar beruvchi manbalar quyidagi turkumlarga bo‘linib, tahlil qilingan.

1. Xonliklar davrida yaratilgan manbalar. Bu manbalarda o‘lka aholisi va uning etnik tarkibi to‘g‘risida ma’lumotlar keng ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, ma’lum bir qal’a va rabotlar to‘g‘risida qisqa ma’lumotlar keltirilar ekan, bu borada ham qisqacha to‘xtalib o‘tilgani kuzatiladi. Shuningdek, bu davrda yaratilgan bir qator manbalarda, o‘lka aholisi tarkibidagi urug‘lar va millatlarning tarixi, ularning voha hududlariga kirib kelish jarayoniga doir ma’lumotlar ko‘zga tashlanadi. Xususan, XVI asrda yashagan Mulla Sayfiddin Axsikatiy va uning o‘g‘li Nur (yoki Navro‘z) tomonidan yozilgan “Majmua at-tavorix”, qo‘qonlik savdogar Avaz Muhammad

ISSN 3030-3907

tomonidan yozilgan “Tuhfat at-tavorixi xoniy” asaridagi6 ma’lumotlar muhimdir. Mintaqa aholisining tarkibi bo‘yicha yozma manbalarga tayanib, tadqiqotlar olib borgan T.I.Sultanov “Tavorixi Mo‘g‘oliya” va “Tavorixi zubdat al-Bashar” qo‘lyozmalariga asoslanib, voha aholisining tarkibida yetakchi millat va elatlar haqidagi ma’lumotlarni ko‘rsatib o‘tgan[7:17-41]

2. Rossiya imperiyasi tomonidan Jizzax vohasi bosib olinganidan so‘ng yaratilgan rasmiy amaldorlar va taftish komissiyalarining ma’lumotlari, statistik materiallar, turli yilnomalar, shuningdek, nashr etilgan bir qancha asarlar va maqolalar[4: 383]

3. Arxiv hujjatlari va statistik materiallar. (aholini ro‘yxatga olish kitoblari va1924-yilgi rayonlashtirish haqidagi ma‘lumotlar); Jizzax vohasi aholisining etnik tarkibini o‘rganishda arxiv va statistik manbalar muhim ahamiyatga ega. O‘lkaga tashrif buyurgan rus tadqiqotchilari va harbiylarining hisobotlarida ba’zan o‘lka aholisi va uning etnik tarkibiga oid ma’lumotlar uchraydi. Jizzax uyezdi Samarqand okrugi tarkibidagi o‘z aholisi soni va etnik xilma-xilligi bo‘yicha Samarqanddan keyingi o‘rinda turadigan ulkan maydonga ega voha edi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivining “Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasi” (f.I-1), “Samarqand viloyati boshqarmasi” (f.I 18), “Jizzax uyezdi boshlig‘i boshqarmasi” (f.I-21) kabi fondlardagi materiallar va aholini ro‘yxatga olish to‘plamlari va “Samarqand viloyatining ma’lumot kitobi” muhim manbaviy asos bo‘lib xizmat qiladi [8]

4. Og‘zaki axborotlar asosida yaratilgan turli nasabnomalar. Voha tarixini o‘rganishda muhim o‘rinda turuvchi manbalar qatoriga Jizzax vohasi hududida yashovchi xalqlarning o‘z ota-bobolaridan eshitgan og‘zaki tarzdagi ma’lumotlari asosida jamlangan turli nasabnomalarini ham kiritish mumkin. Biroq muammo sifatida aytish joizki, faqat eshonlar, xo‘jalar va feodallarning nasabnomalari muhr bosilgan holda saqlangan, oddiy aholining statistikasi bilan bog‘liq yozma hujjatlar deyarli yo‘q va ularni o‘rganish alohida tadqiqot spektrini talab etadi. Vohada yashayotgan turli etnos va subetnoslarning o‘z shajaralarini bilishga bo‘lgan intilishlari natijasi o‘laroq vujudga kelgan bu turdagi manbalar ham mintaqa tarixini turli manbalar asosida yoritishda o‘zaro qiyosiy tahlil qilish uchun muhimdir[3: 165-184].

Voha aholisi bugungi kunda etnik jihatdan murakkab tarkibga ega bo‘lib, o‘zbeklar – 89,0%, qirg‘izlar – 3,1%, tojiklar – 3,0%, qozoqlar – 2,1%, ruslar – 0,7%, boshqa millatlar – 2,1% tashkil qilib, Jizzax viloyatida O‘zbekiston Respublikasi aholisining 4,1% iistiqomat qiladi. Jumladan, o‘zbeklar – 1208,7 ming nafar, qirg‘izlar – 41,6 ming nafar, qozoqlar-28,4 ming nafar, tojiklar-31,6 ming nafar, ruslar-14,9 ming nafar, tatarlar-6,4 ming nafar koreyslar-2,7 ming

ISSN 3030-3907

nafar, turkmanlar-0,4 ming nafar, qoraqalpoqlar-0,2 ming nafar boshqa millat va elatlar vakillari-17,3 ming nafarni tashkil etadi[5].

Vohaning o‘troq aholisi turli tarixiy davrlarda ko‘chib kelgan urug‘ va qavmlarning mushtarak etnik birligini tashkil qilsada, o‘zining kelib chiqishi, urf-odatlari va ayrim milliy an’nalarini saqlab qolganligi bilan bir-biridan ajralib turgan. Jizzax vohasi va unga tutash mintaqalarda yashagan aholi etnik tarkibi va turmush tarzi xususidagi yozma ma’lumotlar asosan XIX asr 60-90 yillari va XX asr 20-yillariga doir ayrim statistik materiallar uchraydi. Shuningdek, XIX asr oxirlaridagi statistik ma’lumotlarda Jizzax uezdi volostlarida aholining joylashuvi, xo‘jaliklar va aholi soni, bog‘ va tomorqa ekinining yer maydoni, chorva soni to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar beradi. Bu statistik ma’lumotlarda 1871 yilda Jizzax uezdida 157 ta qishloq, 7 104 ta oila – xo‘jalik, 22 725 tadan ortiq aholi, shundan Jizzax shaxrida va ja’mi uezd bo‘yicha rusiyzabon aholi oila-xo‘jaligi 70 tadan ortiq, ja’mi 91 kishi istiqomat qilganligi ta’kidlanadi[1:B.50-51].

Jizzax viloyatining tog‘ va tog‘oldi, tekislik hamda cho‘l hududlari aholisi joylashuvi va etnik guruhlarining rang-barangligi bilan ham nisbatan farq qilgan. Jumladan, Jizzax shahri, Sh.Rashidov, Baxmal, Zomin, Forish va G‘allaorol tumanlarida turli o‘zbek urug‘ vakillari bilan bir qatorda boshqa millat va elatlar ham istiqomat qiladi. XX asr 1903-1905 yillardagi arxiv statistik ma’lumotlariga e’tibor qaratilsa, tadqiq etilayotgan hududda asosan ko‘psonli millatlar qirg‘iz va tojiklar tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin.

XX asr boshlaridagi statistik va arxiv ma’lumotlarida tojiklar asosan Jizzax uezdining Bag‘don uchastkasiga tegishli Bag‘don, Sintob volostlarida (jami 10303 kishi shundan 6 284 tasi erkak, 5012 tasi ayol), Yangiqo‘rg‘on uchastkasisiga tegishli Sangzor volostida Saribozor va Avliyo qishloqlarida 53 xo‘jalik, jami 228 kishi, eronilar esa Saribozor qishlog‘ida (jami 11 xonadon, 50 kishi), Zomin uchastkasiga tegishli Zomin volostida (ja’mi 1 269 kishi, shundan 702 ta erkak, 567 ta ayol) istiqomat qilganligi[2, B.51] to‘g‘risidagi arxiv statistik ma’lumotlari diqqatga sazovor. Qirg‘izlar Jizzax uezdining Bag‘don uchastkasiga qarashli Otaqo‘rg‘on, Chardor, Qizilqum, Fistalitau, Ko‘ktyubin volostlarida (jami 50 914 kishi shundan 26 711 tasi erkak, 24 203 tasi ayol), Yangiqo‘rg‘on uchastkasiga qarashli Chashmaob volostida (jami 202 kishi shundan 149 tasi erkak, 53 tasi ayol), shuningdek, uezd markazi Jizzax shahrida (jami 11 kishi shundan 7 ta erkak, 4ta ayol) istiqomat qilganligi to‘g‘risida ma’lumotlar qayd etilgan[1:51-51].

Bugungi kunda tojiklar asosan vohaning cho‘l mintaqalarida (sovetlar davridagi aholining ko‘chirish siyosati natijasida) uyushmagan holatda shuningdek, asosiy qismi Nurota tizma tog‘ining o‘rta va eng baland qismida joylashgan Porasht, Uxum, Sentog‘, Katta va Kichik Ej va Keskan kabi

ISSN 3030-3907

yirik qishloqlarda yashaydi. Bundan tashqari voha tojiklari Xoyati, Andigin, Saf, Ustuq Xisor, Keskan va Sumbuloq kabi kichikroq qishloqlarda ham istiqomat qilishadi. Qishloq aholisi esa «urug‘», «avlod», «jamoa» deb ataladigan katta-kichik etnik guruhlarga bo‘lingan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu avlod va jamoalarning nomlari shu qishloq aholisi o‘zini ataydigan o‘zbeklar qabilasi tarkibidagi urug‘lar nomlaridan umuman farq qiladi. Vohaning tojik qishloqlarida quyidagi katta – kichik avlod va jamoalar istiqomat qilishadi: Forish yoki Porasht qishlog‘idagi aholi Qishloqi, *Ko‘lmaki, Qoravulbegi* va *Maxmat-zamoni* avlodlariga bo‘linib, bu avlodlar o‘zini tojiklashgan o‘zbeklar deb hisoblashadi.

Uxum qishlog‘ida Albaki, Sultoni va Tabaqli yirik etnik guruhlar vakillari istiqomat qiladilar. Mojarum qishlog‘ida asosan Sayfi, Xalachi va Xunuksoyi avlodlari yashashadi. Eng yirik tojik qishloqlaridan biri hisoblanadigan Sentog‘ qishlog‘ida aholi Mulloi, Solili, Xofizi, Najmiddini, Tamuri, Boqiy, Sulton-Xusain, Yodgori, Ayoni, Eshmaxammadi, Bayrami va Qurama avlodlariga bo‘linadi. Ej nomli tojik qishlog‘ida Qozigi, Chalmagi, Mulloy, Shoxi jamoalari istiqomat qiladilar[4:12-13]. Tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida qayd etilganidek, qirg‘izlar asosan Baxmal tumanining tog‘li Obay, Shaybek, Sutlibuloq, Duvlot, Chayish, Surunchak, Qorasuv, Jilbuloq, So‘pi, Jadik, qirg‘iz Tangtopti, Muzbuloq qishloqlarida, shuningdek, Zomin tumanining Qoramozor, Duoba, Qorang‘isoy, Karimsoy qishloqlarida, Do‘stlik va Paxtakor tumanlarida ko‘pchilikni tashkil etadi[1:50].

Xulosa sifatida ta’kidlash kerakki, tojik xalqining etnogenezi va etnik tarixini o‘rganish tarix fanining murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, bu hozirgi kunning muhim muammolaridan biri hamdir. Bugungi kunda jahonda sodir bo‘layotgan etnomadaniy aloqalarning yangilanishi, turli ko‘rinishdagi etnik nizolar kelib chiqayotgan bir sharoitda milliy o‘zlikni anglash, teran tarixiy bilim va tarixiy jarayonlarning etnik rang-barangligida xalqning o‘z munosib o‘rnini aniq-ravshan idrok etishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yana shuni ham etirof etish kerakki tojik xalqining asosiy o‘zagini tashkil qilgan etnik tarkibiy qismlar qadimdan bir-birilari bilan yaqin do‘stona aloqada bo‘lib kelishganligi yuqorida keltirilgan tarixiy manbalarda ham o‘z tasdig‘ini topmoqda. Bu esa bugungi kunda yer yuzida sodir bo‘layotgan etnik mojorolarga barham berishga o‘ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bobobekov A.D. Zangzor-Zomin mintaqasi aholisining XX asr boshlaridagi etnik tarkibini o‘rganishda statistik va arxiv ma’lumotlarining ahamiyati//

ISSN 3030-3907

Markaziy osiyo madaniyati tarixi va tarixshunosligi masalalari// Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya mteriallari.-T., 2019.
2. Davlatova H. Jizzax vohasi tojiklari: an'anaviy turmush tarzi, urf-odatlari va marosimlari. Magistr darajasini olish uchun tayyorlagan diss. Jizzax. 2022.
3. Grenet F., de la Vaissiere E. The last days of Panjikent // Silk Road Art and Archaeology, 8. – Kamakura: 2002. – P. 155–196.; Grenet F. Les «Huns» dans les documents Sogdiens du mont Mugh (aves un Appendice par N. Sims Williams) // StIr, 7. Études Irano-Aryennes offertes á Gilbert Lazard. – Paris: 1989. – P. 165-184.
4. Колоколцов Д.Г. Экспедиция в Хиву в 1873 году: от Джизака до Хивы (Походный дневник). – Санкт Петербург, 1873. – С. 383. 2Колоколцов Д.Г. Экспедиция в Хиву в 1873 году: от Джизака до Хивы (Походный дневник). – Санкт Петербург, 1873. – С. 383.
5. Jizzax viloyat hokimligi rasmiy veb sayti. www. Jizzax.uz. tashrif 2020 yil 10-oktyabr.
6. Первая Всеобшая перепись населения Российской империи 1897 г. Самаркандской области. – СПб., 1905. – С. 26. // https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/41116#cite_note-2 Материалы по землепользованию туземного кочевого населения района Голодной степи и прилегающих местностей Ходжентского и Джизакского уездов Самаркандской области. – Ташкент, 1914. – С. 17.
7. Султанов Т.И. Опыт анализа традиционных списков 92 «племен илатийа» // Средняя Азия в древности и средневековье (история и культура). – М., 1977. – С. 17-41.].
8. Самарканд. обл. стат. ком. Справочник и адрес-календарь Самаркандской области... – Самарканд, 1896-1914.

ISSN 3030-3907